

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

BABAXANOV DJAMOLIDDIN YANDIROVICH

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATSION INFRATUZILMA IMKONIYATLARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Babaxanov Djamoliddin Yandirovich

Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish 3

Бабаханов Джамолиддин Яндирович

Эффективное использование возможностей инновационной инфраструктуры в развитии субъектов малого бизнеса 29

Babakhanov Djamoliddin Yandirovich

Efficient utilization of innovative infrastructure opportunities in the development of small business entities 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

BABAXANOV DJAMOLIDDIN YANDIROVICH

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATSION INFRATUZILMA IMKONIYATLARIDAN
SAMARALI FOYDALANISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt3911 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nammti.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Aripov Oybek Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ibragimov Isroil Usmanovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" mart soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (376-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" 03 kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" 03 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

R.A.Rashidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

R.I.Israilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining taraqqiy etishi, ishbilarmonlik muhitini kengayishi, deversifikatsiyalashgan mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy qilishda kichik biznes subyektlarining mobillik imkoniyatlari keng bo'lgan soha hisoblanadi va kichik biznes subyektlariga innovatsiyalarni joriy etish natijasida esa real daromad olishning mustahkam manbai va ijtimoiy talablarga har jihatdan javob beruvchi subyekt sifatida ham ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jahonda innovatsiya indeksi yuqori bo'lgan mamlakatlar sanalgan Shvetsariya - 67,6, AQSh - 63,5, Buyuk Britaniya - 62,4, Germaniya - 58,8 ni tashkil etmoqda¹. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 26,2 tashkil etmoqda. Kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida O'zbekiston Respublikasining global innovatsion indeks reytingini oshirish dolzarb masalalardan biri sifatida baholanmoqda.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini yuksaltirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligi oshirish, kichik ishlab chiqarish korxonalariga ilg'or innovatsiyalarni joriy etish asosida mahsulot va xizmatlarni yaratishda ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash, xududiy texno-parklarni tashkil etish, biznes akselelator va inkubator markazlarini tashkil etish, loyihalarni tijoratlashtirish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvini takomillashtirish, tadbikorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda ayniqsa ilmiy loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish va ishlab chiqarishda yirik korxonalar bilan kichik biznes subyektlari o'rtasida integratsion jarayonlarni mustahkamlash kabi ilmiy tadqiqotlarni hayotga tadbiiq etishga alohida etibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida kichik biznesni barqaror darajada rivojlantirish, innovatsion qo'llab-quvvatlash infratuzilmadan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilgan ayniqsa innovatsion rivojlantirishda ilmiy xajmdor mahsulot ishlab chiqarish borasida tegishli tartibda moliyaviy imtiyozlar ajratish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida² "Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish" vazifasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 27-iyundagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi 630-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi

¹ Рейтинг страна мира по индексу инноваций. Гуманитарный портал (<https://gtmarket.ru/ratings/global-innovation-index>)

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон "Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида"ги фармони (<https://lex.uz/ru/docs/6600413>)

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni, 2018-yil 24- noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son, 2018-yil 6-avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, “2022 - 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida innovatsion xizmat va mahsulotlarni ishlab chiqarish masalalari bo‘yicha qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Ye.Ye.Sklyarova, R.R.Dulatov, V.X.Tribushnaya, I.Britchenko J.H.Mortensen, E.V.Gofman³.

O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish va imkoniyatlarini kengaytirish orqali innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan: R.Rashidov, A.G‘.Tuychiyev, Sh.I.Otajonov, M.A.Maxkamova, D.S.Qosimova, E.A.Aliyeva⁴

Biroq aynan innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

³ E.E.Склярова. Развитие национальной инновационной системы и оценка ее эффективности. Дис. к.э.н.: -В 2017. Р.Р.Дулатов. Формирование и функционирование инновационной инфраструктуры предприятия. Автореферат. к.э.н.: -У 2017. В.Х.Трибушная. Инновационная инфраструктура как необходимость поддержки наукоёмкого предпринимательства: технопарки и стратегическое управление: Монография. Ижевск:, 2011. Формирование и функционирование инновационной инфраструктуры Украины : монография / А. Князевич ; под научн. ред. д.э.н., проф. И. Бритченко. – Ривне: Волинські береги, 2016. – 272 с. J.H.Mortensen. Exploring the role of technology in innovative social business models. PhD dissertation.: - Sweden 2021. E.V.Gofman. Organization of innovative business processes (by the example of the company "SMU-3") PhD dissertation.: - G 2019.

⁴ R.Rashidov. Innovasion iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.: -N 2023y., A.F.Туйчиев. Кичик бизнесга инновациялар трансферини молиялаштириш механизмини такомиллаштириш. Иктисодиёт fanlari бўйича фалсафа доктори PhD автореферати.: -Т 2020 й. Ш.И.Отажонов. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иктисодий механизмлари самарадорлигини ошириш. Иктисодиёт fanlari бўйича фалсафа доктори PhD диссертацияси.: -Т 2018 й. Махкамова М.А. инновация ва инновацион тadbirkorlik. Монография. –Т.: Университет, 2021. D.S.Qosimova Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik.(Darslik).: -Т “Инновацион ривожланиш наشريёти матба уйи”, 2020. Алиева Эльнара Аметовна. Инновации как значимый фактор в повышении конкурентоспособности малого бизнеса. Монография. Издательство «Истедод зиё пресс». Наманган, 2022

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ITM-6 ish rejasiga muvofiq "Kichik biznesni faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish imkoniyatini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;

kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda infratuzilmani rivojlantirishning institutsional yondashuvni tadqiq etish ;

kichik biznes sohasini jadal rivojlantirish maqsadida innovatsiyaga asoslangan loyihalarni tijoratlashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

tijoratlashtirish loyihalari asosida kichik biznes subyektlarini tashkil etishda kiritilgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

kichik biznesni rivojlanishida innovatsion infratuzilmaning ijobiy ta'sirini ekonometrik tadqiq qilish;

kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirish loyihalarni ishlab chiqish samaradorligini oshirish va tijoratlartirish mexanizimini takomillashtirishni tizimlashtirish;

innovatsion rivojlanish strategiyasiga asosan ilmiy xajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni tashkil etishda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida innovatsion jarayonlarda faol bo'lishi kutilayotgan kichik biznes subyektlarini 2027-yilga qadar istiqbolli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida innovatsiyaga asoslangan ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni joriy qilgan kichik biznes subyektlaridan iborat.

Tadqiqotning predmetini kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik tahlil, omilli tahlil, NPV, ekonometrik tahlil hamda tanlanma kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra – "innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni texnologik rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot yaratish, yangi innovatsion tovarlarni va xizmatlarni joriy qilishda ilmiy, texnologik, moliyaviy resurslar, ijtimoiy va innovatsion infratuzilma munosabatlar yig'indisi bilan uzviy bog'liqligi jihatdan takomillashtirilgan;

"INNOVATION IDEAS" korxonasi ilmiy hajmdor mahsulot ishlab chiqarish loyihasini tijoratlashtirish bo'yicha ajratilgan mablag'dan samarali

foydalanish hisobiga korxonalar sof foydasini oshirishning 2024-2025 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari asoslangan;

kichik biznes subyektlarining innovatsiya asoslangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish doir ilmiy loyihaning natijadorligini ilmiy tadqiqot ishlar (R&D), protatib va sinov (P_{rs}), moliyalashtirish (M_I), marketing va bozor (M_{rb}), tijoratlashirish (T_{ij}) jarayonlarining maqbul nisbati (0,25; 0,15; 0,25; 0,17; 0,18) ni ta'minlash orqali oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati bo'yicha innovatsion jarayonlarda 2027-yilga qadar faol bo'lishi kutilayotgan kichik biznes subyektlarining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirishning nazariy asoslari tadqiq etish asosida uslubiy yondashuv asoslangan;

Innovatsion infratuzilmaning kichik biznesni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili amalga oshirilgan;

Kichik biznes subyektlariga ajratilgan tijoratlashirish loyihalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil etilgan;

Tijoratlashirish loyihasi doirasi **“INNOVATION IDEAS” MChJ** moliyalashtirishning iqtisodiy tahlili va samaradorlik ko'rsatkichi baholangan;

inovatsion loyihalar natijadorligini ta'minlash va moliyalashtirishning takomillashtirilgan tizimi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida innovatsion jarayonlarda faol bo'lishi kutilayotgan kichik biznes subyektlarini 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Namangan viloyati statistika boshqarmasi hisobotlaridan olinganligi, Innovatsion rivojlantirish agentligi ma'lumotlari matematik va ekonometrik usullar bilan amaliyot bilan bog'langanligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif va tavsiyalardan iqtisodiyotni innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish va samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlantirish agentligi kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini, jumladan “Kichik biznes va tadbirkorlik”, “Innovatsion iqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot” fanlariga oid dasturlarni va o'quv adabiyotlarini zamon talabiga monandligini ta'minlashga erishish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida kichik biznes rivojlantirishga oid ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra – “innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni texnologik rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot yaratish, yangi innovatsion tovarlarni va xizmatlarni joriy qilishda ilmiy, texnologik, moliyaviy resurslar, ijtimoiy va innovatsion infratuzilma munosabatlar yi'gindisi bilan uzviy bog'liqligi jihatdan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Kichik biznes va xususiy tadbikorlik” nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini hamda kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

“INNOVATION IDEAS” korxonasi ilmiy hajmdor mahsulot ishlab chiqarish loyihasini tijoratlashtirish bo'yicha ajratilgan mablag'dan samarali foydalanish hisobiga korxonada sof foydasini oshirishning 2024-2025 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatgichlari bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining *“2030 yilgacha bo'lgan davrda kichik biznes faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish dasturi”*ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 23-oktyabrdagi 01-03/3756-son ma'lumotnomasi). Taklifdan foydalanish natijasida kichik biznes subyektlarida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha tayyorlangan innovatsion loyihalar samaradorligini aniqlash uslubiyoti asosida tijoratlashtirish mezonini yaratilgan hamda loyiha doirasida ajratilgan investitsion mablag'lardan samarali foydalanishni nazoratga olish imkoni yaratilgan;

kichik biznes subyektlarining innovatsiya asoslangan mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish doir ilmiy loyihaning natijadorligini ilmiy tadqiqot ishlar (R&D), protatib va sinov (P_rs), moliyalashtirish (M₁), marketing va bozor (M_rb), tijoratlashtirish (T_{ij}) jarayonlarining maqbul nisbati (0,25; 0,15; 0,25; 0,17; 0,18)ni ta'minlash orqali oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-307-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 23-oktyabrdagi 01-03/3756-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida hududlarda 224 ta tijoratlashtirish loyihalari kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilib, innovatsion ishlanmalarning tijoratlashtirish salmog'i o'rtacha 20 foiz oshirishga erishilgan;

O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyati bo'yicha innovatsion jarayonlarda 2027-yilga qadar faol bo'lishi kutilayotgan kichik biznes

subyektlarining prognoz ko'rsatgichlaridan Innovatsion rivojlanish agentligining "2030 yilgacha bo'lgan davrda kichik biznes faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligining 2024-yil 23-oktyabrdagi 01-03/3756-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika bo'yicha kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyatini rivojlantirishning asosiy parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan mahalliy ilmiy jurnallarda 3 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 6 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 117 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'yekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida "Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari", "Kichik biznes rivojlantirishning institutsional infratuzilmadan samarali foydalanish asoslari", "Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmi"ga bag'ishlangan.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitlarida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlarini taminlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi.

Mamlakatimiz olimlaridan M.P.Boltabayev va bosh. "Kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarish kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va sotish, kommunikatsiya va aloqa, maslahat va axborot kabi bir qator xizmat turlariga talabi ortib boraveradi. Chunki kichik tadbirkorlik subyektlariga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish bitmaydi. Ularning to'laqonli faoliyatini faqat mukammal

tashkil etilgan infratuzilma bo‘linmalari orqaligina tasavvur etish mumkin. Infratuzilma iqtisodiy tizimning bir qismini tashkil etib, u ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi” deb izohlagan⁵.

Inratuzilma - ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish shart-sharoitini ta’minlovchi tarmoqlar majmui. Ishlab chiqarishni energiya bilan ta’minlash, transport, aloqa, axborot va boshqalar ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Aholining turmush tarzini ta’minlovchi uy-joy, sog‘liqni saqlash muassasalari, o‘quv yurtlari, fan va shu kabi sohalar ijtimoiyni tashkil qiladi⁶.

Bugungi kunga kelib umumiy infratuzilma atamasidan ayrim elementlar majmuidan mujassam bo‘lgan infratuzilmalarga ajratilmoqda. Shulardan biri bu innovatsion infratuzilmadir. Infratuzilma umumiy ma’noda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, yashash, mehnat tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanishda sharoitlarni yaxshilash va zaruriy vosita hamda yordamlar ko‘rsatishdan iborat mustaqil majmua deb tushuniladi.

Innovatsion infratuzilma milliy innovatsion tizimning asosiy elementlaridan biridir. Ikkinchidan esa ma’lum bir davlatga xos bo‘lgan innovatsion jarayonlar shartlariga ta’sir ko‘rsatadigan huquqiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot institutlarini o‘z ichiga oladigan tizim hisoblanadi.

19-asrda ilmiy tadqiqotlarda “yangilik”, “innovatsiya” kabi atamalar paydo bo‘lib, dastlab bir madaniyat elementlarining boshqa madaniyatga kirib borishini bildirgan. Ko‘pincha bu atamalar sinonim sifatida ishlatilgan va bir-birini to‘ldirgan. Innovatsiya - bu yangi tartib, yangi usul, ixtirodir. Innovatsiya - bu yangilikdan foydalanish. Innovatsiya - bu tadbirkorlikni rag‘batlantirilgan ishlab chiqarish omillarining yangi ilmiy va tashkiliy kombinatsiyasidir. Innovatsiya, shuningdek, ixtiro yoki g‘oyaning iqtisodiy mazmunga ega jarayonidir⁷. Biroq olim B.Tviss innovatsion omillarni talqin qilishda moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlanishi kerakligini nazardan chetda qoldirgan. Chunki innovatsiyalarni yaratish mablag‘ni talab etadi.

Innovatsion infratuzilma ko‘p komponentli elementlardan iborat. Uning tarkibiga innovatsion va texnologik faoliyat markazlari, texnoparklar, oliy ta’lim muassasalari kiradi. Ular nafaqat innovatsion jarayon samaradorligini oshirishga, balki muvaffaqiyatli tijoratlantirilgan va daromad keltiradigan yangi ishlanmalar hamda mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlarni amalga oshiradilar⁸.


Kichik biznes faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda infratuzilma va uning keng ko‘lamli imkoniyatlari xususida olimlar yaratgan nazariy asoslar, qonunchilik hamda davlat tayanchi sarhisob qilar ekanmiz, kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanishning amaliyotda asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (1-rasm).

⁵ М.П.Болтабаев ва бошқалар. Кичик бизнес ва тadbirkorlik./Ўқув қўлланма//-Т: Ношир, 2011. 6-140

⁶ Z.Zoyirov. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti 2004 yil. B-16

⁷ Твисс, Б. Управление научно-техническими нововведениями. – М.: Экономика, 1989. – 260с

⁸ И.О.Седых и др. УПРАВЛЕНИЕ СОЗДАНИЕМ ИННОВАЦИОННОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ // Экономические науки. вестник алтайской академии экономики и права №1 2021. С-86



1-rasm. Kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning tarkibiy qismi⁹

Rasmdan ko'rish mumkinki kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy va investitsion hamda axborot-maslahat kabi yordaming bevosita birlashtirish orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha indentifikatsiyalangan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyatli hisoblanadi. Chunki bugungi kunda biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi kirib kelayotgan xizmat ko'rsatish tizimlarini infratuzilmaning elementlari deb hisoblaydigan bo'lsak biznes inkubator, texnoparklar, ilmiy markazlar bugungi kunda kichik biznes sohasida innovatsiyalarni joriy qilish, diversifikatsiyalangan mahsulot yaratish, bozorga kirishni yengillashtirish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishda katta hissa qo'sha oladi.

"Infratuzilma" tushunchasi tadbirkorlikka 1955-yilda amerikalik olim P.Rozenshteyn-Rozan tomonidan kiritilgan bo'lib, u infratuzilmani iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida xususiy tadbirkorlikning qulay rivojlanishini ta'minlaydigan va

⁹ Муаллиф ишланмаси

qolaversa butun aholining ehtiyojlarni qondiruvchi umumiy shart-sharoitlar majmuasi deb ta'riflagan¹⁰.

Umuman olganda innovatsiyalar xar bir mamlakatda ham deyarli yuqori darajada rivojlanmagan bu o'z navbatida rivojlanishining past darajasiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

– kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha innovatsion infratuzilmadan foydalanish darajasi pastligi;

- xududiy darajadagi innovatsion rivojlanishni ta'minlash bo'yicha strategik rejalar to'la qonli bajarilmasligi;

– mamlakatda innovatsion tovar va xizmatlarga talabning pastligi;

– innovatsion mahsulot va xizmatlar uchun ishlab chiqilgan standartlarning yo'qligi;

– innovatsion prognozlashning yetarli darajada emasligi;

– davlat tomonidan moliyalashtirishning past darajasi;

– Innovatsion lohiyalarni tijoratlashdagi muammolar;

– intellektual mulkni muhofaza qilish va tartibga solish tizimi rivojlanmagan;

– ilmiy tadqiqot ishlamlarni ishlab chiqarishga joriy etish ta'lim va ishlab chiqarishning xamkorlik darajasi pastligi.

Bundan tashqari xududiy darajada innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ayniqsa, innovatsion rivojlanish ob'yektlari (biznes inkubator markazlari, texnologik platformalar, muhandislik markazlari, texnoparklar bank muassasalar xizmatlariga talabning past darajasi. Mazkur ishlardan samarasiz foydalanish natijasida innovatsion infratuzilma imkoniyatidan samarasiz foydalanishga olib keladi. Kichik innovatsion korxonalarini rivojlantirishning muvaffaqiyati nafaqat ularning innovatsion salohiyatiga, balki uni rivojlantirish shartlariga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi mexanizmining ta'sir darajasiga ham bog'liq.

“Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilmani qo'llab-quvvatlash mexanizmi konsepsiyasi qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo'lishi lozim. Ko'plab tadqiqotlar va o'rganishlar natijasiga ko'ra kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmi maqsadlar, vazifalar, funksiyalar va vositalar majmuini identifikatsiyalash iborat bo'lishi kerak (2-rasm).

Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmining mazmuni birinchi navbatda maqsadi: iqtisodiyotning texnologik jihatdan eng murakkab tarmoqlarida kichik korxonalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bilan belgilanadi. Innovatsion infratuzilma kichik biznesni rivojlantirishdagi asosiy vazifalarni quyidagilardan iborat:

– iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarini rivojlantirish;


– kichik korxonalarini rivojlantirish uchun ilmiy loyihalarni moliyalashtirish;

– innovatsion xavflarni kamaytirish;

– innovatsion sohaga kiritilayotgan investitsiyalar samaradorligini oshirish;

¹⁰ Rosenstein-Rodan P. Notes in the Theory of the «Big Push» // Economic Development of Latin America. New York, 1961. –P 60.

- kichik korxonalar uchun konsalting va ekspert yordami;
- innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni tijoratlashtirish;
- innovatsion sohadagi loyihalarni amalga oshirish uchun kadrlarmalakasini oshirish;
- talim va ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish.



2-rasm. Kichik biznes rivojlantirishda innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish tizimi¹¹

Yuqoridagi nazariy asoslar tahlilidan kelib chiqib “innovatsion infratuzilmadan samarali foydalanish asosida kichik biznesni rivojlantirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni texnologik rivojlanish, raqobatbardosh mahsulot yaratish, yangi

¹¹ Муаллиф ишланмаси

innovatsion tovarlarni va xizmatlarni joriy qilishda ilmiy, texnologik, moliyaviy resurslar, ijtimoiy va innovatsion infratuzilma munosabatlar yi'gindisi bilan uzviy bog'liq.

Dissertatsiyaning **“Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatining samaradorlik ko'rsatgichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida kichik biznes subyektlariga ajratilgan tijoratlashtirish loyihalarning iqtisodiy tahlili, kichik biznes subyektlariga ajratilgan tijoratlashtirish loyihalardan foydalanish samaradorligi, kichik biznesni rivojlanishiga innovatsion infratuzilmaning ta'sirini ekonometrik baholash masalalariga bag'ishlangan.

Bugungi kunga kelib tadbikorlik subyektlari faoliyat samaradorligini oshirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimlari ko'lami tobora kengayib bormoqda. Mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab tadbikorlik ayniqsa kichik biznes subyektlarini qo'llab quvvatlash mexanizmlari yaratilib yillar o'tgan sari moliyalashtirishning ko'lami oshib bordi. Avvallari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning to'g'ridan-to'g'ri dotatsiya berish, kafolatli kreditlar ajratish, amortizatsiya uchun moliyaviy yordam ko'rsatish, imtiyozli kreditlar ajratish, davlat buyurtmalarini bajarish uchun subsidiyalar berish, davlat dasturlari doirasida moliyalashtirish kabi yordam ko'rsatib kelingan¹². Bugungi kunga kelib esa kichik biznes subyektlarini infratuzilma imkoniyatlardan foydalanishni kengaytirish hamda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida innovatsion mahsulot yaratish hisobiga loyihalarni davlat mablag'lari asosida tijoratlashtirish faoliyati yo'lga qo'yildi. Buning amaliy natijasi hamda xuquqiy me'zoni esa O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonunidir.

Shuningdek qonunning 25-moddasida innovatsion infratuzilmaning subyektlari ro'yxati keltirib o'tilgan bo'lib, ular:

- innovatsion texnologik park;
- texnologiyalar transferi markazi;
- innovatsion klaster;
- venchur tashkiloti;
- innovatsiya markazi.

Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, boshqa shaxslar innovatsion infratuzilmaning subyektlari bo'lishi mumkin¹³.

Mahalliy ishlanmalarni tijoratlashtirishning samarali mexanizmlarini ta'minlash, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, intellektual mulk ob'yektlari mualliflarini, shuningdek iqtisodiyotning real sektori vakillarini rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-avgustdagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3899-sonli qarori qabul qilindi¹⁴. Mazkur


¹² Джалилов А.А. Кичик бизнесни давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг асосий шакллари. Иқтисодиётнинг реал сектори илмий журнали. Тошкент. 2016 9-сон

¹³ O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonuni <https://lex.uz/acts/4910391>

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 августдаги “Илмий ва инновацион фаолиятни интеграциялаш тизимининг самардорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3899-сон қарори (<https://lex.uz/досс/3853858>)


qaror ilm-fan va ishlab chiqarish subyektlari bilan integratsiyasini chuqurlashtirish qatorida innovatsion mahsulotlari ishlab chiqarishda O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti hamda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari hisobidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot ishida loyihalarni tijoratlashtirish asosidagi ko‘rsatgichlarni tahlil qilishni maqsad qilib oldik. Ushbu iqtisodiy tahlilimiz 2019-yildan 2022-yilga qadar bo‘lgan davrga tegishli. Loyihalarni tijoratlashtirish bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatgichlarni tahlil qilish asosida barqaror va mutanosib iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, iqtisodiy islohotlar samaradorligi aniqlash hamda aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchliligini ta‘minlashga hizmat qiladi. Tahlilimiz avvalida biz tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xajmini aniqlab olamiz (2-rasm).



3-rasm. Tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish dinamikasi (kichik biznes sohasi bo‘yicha mlrd. so‘mda)¹⁵

Dinamikadan ko‘rish mumkinki tijoratlashtirish natijasida ilmiy-hajmdor mahsulot ishlab chiqarish 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 8,2 foizga yoki 17,9 mlrd so‘mga oshganligini ko‘rish mumkin.



4-rasm. Respublika bo‘yicha iqtisodiyotdagi mavjud muammolarni yechimlari va innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga ajratilgan tijoratlashtirish mablag‘lar va undan foydalanish hajmi (mlrd. so‘mda)¹⁶

¹⁵ Инновацион ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

¹⁶ Инновацион ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

Ushbu dinamikadan ko‘rish mumkinki 2019-yilda tijoratlashtirish loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 10,3 mlrd. so‘m ajratilgan va kichik biznes subyektlari bilan 2,8 mlrd so‘mlik shartnoma tuzilgan 2023-yilga kelib esa ajratilgan mablag‘lar 29,6 mlrd so‘mni va korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar 41,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. Tendensiyadan ko‘rish mumkinki so‘ngi besh yil ichida 2023-yilga kelib innovatsiyalarni joriy qilish maqsadida korxonalar bilan tuzilgan shartnoma ajratilgan mablag‘ga qaragandi 71 foizga o‘sgan. Bu o‘z navbatida tadbikorlik subyektlari tomonidan innovatsion mahsulot va xizmatlarni tashkil etish bo‘yicha talabning oshganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasining innovatsiya to‘g‘risidagi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezintining qarori bo‘yicha kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ayniqsa imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini pasayib ketishiga ham olib keladi. Bunday muammoning yechimining asosiy jihati ta‘lim tizimi bilan ishlab chiqarish sohasida chuqur integratsiya jarayoni faollashtirish, buning yana bir yechimi esa ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan tijoratlashtirish bo‘limi hamda biznes akselelatorlik markazlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xududiy bo‘limlarni tashkil etish, tadbikorlarni xuquqiy savodxonligini oshirish, biznes-marketing faoliyatini jadallashtirishdan iborat.

Umuman olganda respublikamizda innovatsiya rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda muhim xususiyatlar mavjud bo‘lsada bu imkoniyatdan samarali foydalanish yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik tufayli innovatsion rivolanish bir oz bo‘lsada ortda qolayotganini ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Respublikada hududlar bo‘yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xazmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)¹⁷

№	Xudud nomi	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1	Qoraqalpog‘iston respublikasi	59	101	43	72	295
2	Andijon	128	141	130	79	271
3	Buxoro	172	284	133	147	426
4	Jjizzax	116	109	71	63	219
5	Qashqadaryo	137	177	278	470	348
6	Navoiy	574	395	391	358	399
7	Namangan	184	377	170	156	116
8	Samarqand	215	476	221	140	376
9	Surxondaryo	212	442	185	214	420
10	Sirdaryo	315	223	181	167	110
11	Toshkent vil.	388	1044	545	514	434
12	Farg‘ona	431	687	321	305	254
13	Xorazm	80	64	69	146	446
14	Toshkent sh.	905	2251	1137	991	912

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, respublikada hududlar bo‘yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xazmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha o‘sish suratlarini 2022-yilga nisbatan 2023-yilda deyarli barcha viloyatlarda o‘sish suratini

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Хузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси (<https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/17505-2022>)

qayd etgan bo'lsada ayrim viloyatlar jumladan, Namangan, Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent viloyati hamda Toshkent shahri 2023-yilda 2022-yil nisbatan o'sish surati kamayginini ko'rsatmoqda. Umumiy hisobda respublikamiz bo'yicha jami innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilda 3822 ta 2023-yilda esa 5026 tani tashkil etib bu ko'rsatgich o'tgan yilga nisbatan 131,5 foizga o'sgan.

Tahliliy ma'lumotlarga asosan kichik biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan tijoratlashtirish loyihasi doirasidagi mablag'lardan foydalanish holatini ko'rib chiqiladi. Buning uchun biz tadqiqot ob'yekti sifatida tanlab olingan "INNOVATION IDEAS" MChJ bo'yicha ko'rib chiqildi.

"INNOVATION IDEAS" MChJ tijoratlashtirish loyihasi doirasida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun TERIA seriali bakterial o'g'it ishlab chiqarish uchun loyiha pasporti tayyorlanib 2020-yilda ekspertizadan o'tkazish uchun innovatsion rivojlanish vazirligiga taqdim etilgan. Loyihaning umumiy qiymati 915319,6 ming so'mni, shundan vazirlik hisobidan 801019,6 ming so'm korxonalar hisobidan 114240,0 ming so'mni tashkil etgan¹⁸. Ishlab chiqarilgan o'g'itning tan narxi 240000 ming so'mni, sotuv narxi 315000 ming so'mni takshil etishi loyiha pasportida asoslangan. Shuningdek ishlab chiqarish quvvati yiliga 90 tonnani tashkil etishi ko'zda tutilgan. Loyihaning umumiy xarajatlar smetasida o'g'it ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun ish haqi fondi, ijtimoiy soliq, asbob uskunalalar va boshqa xarajatlar ko'zda tutilgan. "INNOVATION IDEAS" MChJ ga tijoratlashtirish loyihasi doirasida ajratilgan mablag'dan so'ng o'z ish faoliyatini boshlagan davr ya'ni 2021-yilda sof tushum 1135435,00 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatgich 3 050 112,00 so'mni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval

"INNOVATION IDEAS" MChJning asosiy moliyaviy ko'rsatgichlari (ming so'mda)¹⁹

№	Nomi	Yillar		
		2021	2022	2023
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	1 135 435,00	2 229 985,00	3 050 112,00
2	Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	115 173,00	934 615,00	1 278 696,00
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	1 020 262,00	1 295 370,00	1 771 416,00
4	Davr xarajatlari jami	775 923,00	777 589,00	896 291,00
5	Ma'muriy xarajatlar	430 100,00	263 250,00	282 491,00
6	Boshqa operatsion xarajatlar	345 823,00	x	x
7	Asosiy faoliyatning foydasi	244 339,00	517 781,00	875 125,00
8	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda	244 339,00	517 781,00	875 125,00
9	Hisobot davrining sof foydasi	207 042,00	517 781,00	875 125,00

Ushbu jadvalda ko'rib turganingizdek "INNOVATION IDEAS" MChJ asosiy moliyaviy faoliyatda sof tushum 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 36,7 foizga yoki 820 127,00 ming so'mga oshgan bo'lsa tannarx esa 344081,00 so'mga yetgan.

¹⁸ Лойиха паспорти

¹⁹ Муаллиф ишланмаси

Korxonaning sof foydasi esa 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 69 foizga oshgan. 2023- yilda korxonaning rentabellik darajasi 17,8ni tashkil etgan.

Ko‘rib turganingizdek **“INNOVATION IDEAS” MChJ 2021 va 2022 yillarda** Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi past darajada bo‘lgan 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich ko‘tarilib ketgan. Bunga ta’sir etuvchi asosiy omillardan yer va mulk solig‘ini, bino inshootlar ijara xaqqi va elektr energiyasi narxlarining oshib ketishi va boshqalarni sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Korxonada olib borilgan tahlilni yanada chuqur tahlil qilish va kiritilayotgan loyiha doirasida investitsiyalar samaradorligini aniqlashda NVP modeli orqali tadqiqotni davom ettiramiz.

Oddiy qilib aytganda, NVP joriy pulni kelajakdagi pul bilan solishtiradi, bu inflyatsiya tufayli samaradorlikka qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqiladi. Investitsiyadan kutilayotgan kelajakdagi pul oqimlarini ko‘rib chiqish va ularni bugungi qiymatga aylantirish orqali biz loyihaning foydali bo‘lishini baholash mumkin. Samaradorlik mezoni bitta loyihaning samaradorligini baholash uchun ham, muqobil loyihalarni taqqoslashda optimal variantni tanlash uchun ham qo‘llaniladi. Agar NPV ($nvp > 1$) ijobiy bo‘lsa, ushbu loyihaga mablag‘ ajratish samarali bo‘ladi.

Muqobil investitsiya loyihalarini solishtirganda, optimal variant kattaroq ijobiy NVP qiymatiga ega bo‘lgan variant hisoblanadi.

Biz yuqorida ko‘rilgan tahlil va masalalardan kelib chiqib NVPda daromadlilik indeksini (PI) hisoblash usuli orqali samaradorlik aniqlashni maqsad qildik. Chunki samaradorlik indeksi loyihaga mablag‘ ajratish samarali aniq o‘lchov orqali aniqlash imkonini beradi.

Usul sof joriy qiymat usulining natijasidir. PI rentabellik indeksi (PI - inglizcha rentabellik indeksi) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$PI = \sum_{t=1}^t \frac{NI_t}{(I+i)^t} / \sum_{t=0}^t \frac{K_t}{(I+i)^t}$$

Bu yerda:

NI_t – t yildagi rejalashtirishgan pul mablag‘i;

K_t – t yildagi ajratilgan pul mablag‘i.

Agar $PI > 1$ bo‘lsa, u holda loyiha samarali va qabul qilinishi mumkin. Sof joriy qiymatdan farqli o‘laroq, rentabellik indeksi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Endi yuqorida tahlil keltirilgan ixtiyoriy korxonaning loyiha doirasida ajratilgan pul mablag‘ini rentabellik indeksiga muvofiq samarali yoki ajratilgan mablag‘ samarasiz ekanligini aniqlaymiz. Tanlov sifatida **“INNOVATION IDEAS” MChJ** misolida ko‘rib chiqamiz. Natijani qo‘yidagi jadvaldan ko‘rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

“INNOVATION IDEAS” MChJ dastlabki qiymatlari²⁰

№	Ko‘rsatkich nomi	Ko‘rsatkichlari	Birlik
1	Hisob kitob yuritish davri	60/5	Oy, yil
2	Belgilangan hisoblash davri	1	Yil

²⁰ NVP va PI formulali asosida hisob natijalari

3	Investitsiyalar miqdori	915319,6	Ming so‘m
4	Tanlangan hisoblash davri doirasida ob‘yektning ishga tushirish	1	Yil
5	Loyiha mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning o‘rtacha yillik hajmi	90	Tonna (yiliga)
6	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi	1 020 262,00	Ming so‘m
7	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun joriy xarajatlar	775923.00	Ming so‘m
8	Chegirma stavkasi	0	Foiz

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki bir yil uchun ajratilgan loyiha mablag‘i yalpi foydasi hamda joriy harajatlar yuqorida keltirilgan jadvalga mos nisbatan olingan va yillik hajm ham loyiha pasportida keltirilgan hajmga mos nisbatan olingan. Chegirma stavkasi esa 0 foizda berilgan. Buning sababi agar shu tijoratlashtirish loyihasi o‘rniga bank krediti olish yoki kelishuv asosida investitsiya ajratiladigan bo‘lsa unbu chegirma stavkasi eng kam foiz stavka 1 foizdan yuqori stavka 32 foizgacha yoki investor topish hisobiga 50/50 bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatdagi tijoratlashtirish loyihasi doirasida ajratilayotgan mablag‘ 0 foiz stavka qaytarilmas sharti bilan beriladi.

$$NPV = \sum_{t=3}^n C_t / (1 - D)^n$$

Bu yerda:

C_t – yil davomidagi sof pul aylanmasi

t – vaqtga bog‘liq bo‘lgan davrdagi pul oqimi

D – chegirma stavkasi

Berilgan formula bo‘yicha tahlilni davom etiramiz:

Tahlil natijasi bilan quyidagi jadvalda tanishishingiz mumkin (4-jadval).

4-jadval

“INNOVATION IDEAS” MChJ hisoblangan qiymatning integral ko‘rsatkichlari²¹

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlari	Birlik
1	Moliyalashtirish davri	1	Yil
2	Dinamik vaqt	1	Yil
3	Sof joriy qiymat (ehtimollik 3 yilda)	8 946 862,62	Ming so‘m
4	Daromad darajasi	100	foiz
5	PI (o‘rtacha) rentabellik indeksi	98,12	Indeks
	ROI	234	%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki ehtimollik tariqasi kiritilgan loyiha mablag‘i ya’ni investitsiya 3 yil muddatda 8 946 862,62 ming so‘mga yetkazish mumkin. Biroq bozor konyukturasi, turli xatarlar va tahdidlar, fors-major holatlari hisobiga sof joriy qiymat 3 yil ichida bu ko‘rsatkichga yetmasligi mumkin ammo maksimal ish faolyaitini yo‘lga qo‘yilsa izlanishlar davom ettirilsa 3 yilda sof joriy

²¹ NVP va PI формули асосида ҳисоб натижалари

qiymat ehtimoldan yuqori bo‘lishi mumkin. PI indeksi esa 1dan katta bo‘lib 99,15ni tashkil etmoqda bu MChJ uchun moliyalashtirishgan mablag‘ demak samarali ekanligi ko‘rsatmoqda.


Biz yuqorida NVP asosida “Innovation-Ideas” korxonasini 3 yilda sof joriy qiymatning ehtimoliy qiymatini aniqladik endi ARIMA modeli asosida 2024-2025 yillarda sof foydaning prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlab olamiz.

